

ETNOGRAFIYA

AN'ANAVIY UY HUNARMANDCHILIGINING SURXON-SHEROBOD VOHASIDAGI ARXAIK E'TIQOD IZLARI

Pardayev Toshkenboy Radjapovich*Termiz davlat universitet Jahon tarixi kafedrası professorı,
tarix fanlari doktori*<https://orcid.org/0007-0005-2533-484X>**Ergashov Isroil Abdumalik o'g'li***Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
Ilmiy Kengash kotibi, Ijtimoiy gumanitar fanlari kafedrası o'qituvchisi
isroilergashov94@gmail.com
UDK: 94(575.1)*

Annotatsiya: O'zbek xalqi qadimdan kosib-hunarmand bo'lgan. Yurtimizda hunarmandchilik qadimdan taraqqiy topgan, turli bejirim buyumlar yasash, kundalik hayotda asqotadigan jihozlar tayyorlash, shu orqali o'z mehnati bilan odamlarga naf keltirish qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Kalit so'zlar. Hazrati Xizr, keskilik, Tusin, yog'och, ko'z tikan, bo'ura, xos kapa, kigiz gilam, tug'donagul, shoxmola, "qirdo'ngil", oltido'ngil, adorg'a, kizuv, qilich, suruv, arqon, Kashtado'zlik, tivit salla, paytava, fo'ta, oygilam, nonxalta, qoshiqxalta, tuz xalta, bo'g'joma, xurjun, napramach.

Аннотация: Узбекский народ с древних времен занимался ремеслами. Ремесленное мастерство развивалось в нашей стране с древних времен, и создание различных прекрасных предметов, предметов быта, приносящих пользу людям благодаря их труду, достигло высокого уровня ценности.

Kalit so'zlar. Hazrati Xizr, keskilik, Tusin, yog'och, ko'z tikan, bo'ura, xos kapa, kigiz gilam, tug'donagul, shoxmola, "qirdo'ngil", oltido'ngil, adorg'a, kizuv, qilich, suruv, arqon, Kashtado'zlik, tivit salla, paytava, fo'ta, oygilam, nonxalta, qoshiqxalta, tuz xalta, bo'g'joma, xurjun, napramach.

Annotation: The Uzbek people have been craftsmen since ancient times. Craftsmanship has been developed in our country since ancient times, and the creation of various beautiful objects, equipment used in everyday life, and thus bringing benefit to people through their labor have risen to a level of value.

Keywords. Hazrati Khizr, keskilik, Tusin, wood, eye thorn, mat, special cap, felt carpet, tug'donagul, shokmola, "kirdongil", oltidongil, adorga, kizuv, sword, sheep, rope, Kashtadozlik, tivit turban, paytava, fota, aygilam, bread bag, spoon bag, salt bag, bag, khurjun, napramach.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Etnograf O. A. Suxarevaning yozishicha, o'zbeklar orasida Hazrati Xizrga shaharlar homiysi sifatida ham qaralgan. Odatda, uy qurish ishlari dastlab uning poydevorini tiklashdan boshlangan bo'lib, xalqona tasavvurga ko'ra, bu jarayonga haftaning xayrli va omadli kunlaridagina kirishilgan. Surxon vohasi o'zbeklari orasida dushanba, chorshanba, payshanba va shanba kunlari uy qurilishidagi dastlabki yumushlar boshlangan. Chunki aynan shu kunlar xosiyatli hisoblangan. Yangi uyni qurish jarayonida uning dastlabki yog'ochlari o'rnatilgandan so'ng uy tusini yoki xarisini ko'tarishda ajoyib bir udum bajarilgan. Odatda, usta uylarning tusin yoki xarisini o'rnatish chog'ida uy egasidan biror-bir narsa (Odatda, ko'ylak, kiyit (belbog') va shu kabilar)ni ehson qilishni so'ragan. Bu narsa xalq orasida *keskilik* deb atalgan. Agar ustaga *keskilik* berilmasa, keyinchalik ustaning ishi yurishmay, og'ir xastalikka chalinib qolar ekan. Axborotchilarimizning ta'kidlashlaricha, har bir hunarmandchilik sohasining o'z asoschisi (pir-u murshidi) bo'lgani kabi, ustachilikning xam asoschisi - piri bo'lgan. Tusin (yoki xari)ni

ko'tarish paytida ustaga keskilik o'sha pining haqqi sifatida berilgan. Usta esa o'zi ishlab pul topayotgan ushbu hunar asoschisining haqqiga duoyi fотиha qilib turishi lozim bo'lgan. Axborotchilarning e'tirof etishlaricha, ustachilikning piri Ibrohim Xalilullox hisoblanadi. Chunki bu payg'ambar odamlar orasida dastlabki imorat qurgan kishi hisoblanadi. Ayrimlar Nux (a.s.) odamlar orasida eng birinchi bo'lib yog'ochdan qayiq yasagan inson bo'lganligi sababli uni yog'och hunarmandchiligining piri sifatida tan oladilar.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Voha aholisi orasida yangi imorat qurilib, bitganidan keyin uning eshigi yoki darvozasi tepasiga uy va oilani jinshaytonlardan hamda hovli-joyni baloqazolardan saqlaydi degan ishonch bilan ko'z tikan va oyoq kiyimlarni ilib qo'yish urfga aylangan.

Usti bo'yra bilan yopilgan kapani "xos kapa" va "chum" deb atalganligi, kigiz gilamlarning "tug'donagul", "taqirgul", "tug'ma baqa", "gajakgul", "gultaylama", "qirqdonagul", "shoxmola", "qirdo'ngil", "oltido'ngil" kabi turlari keng tarqalgan.

Olim Iso Jabborovning qayd etishicha: "O'zbekistonda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar - bu yerda hunarmandchilik va uy-ro'zg'or kosiblari, transport vositalari va savdosotiq ikki ming yillar muqaddam keng tarqalganligi va rivojlanganligini isbotladi. Bu davrda shahar madaniyati paydo bo'lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo'lib ajralib chiqqan. Shaharlar o'sib, savdo-sotiq rivojlangan. Butun mintaqada yirik shaharlar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy, balki siyosiy va madaniy markazlarga aylana boshlangan.

IX-XII asrlarda hunarmandchilik keng miqyosda rivojlanib, O'rta Osiyoning, shu jumladan, o'zbek elining ham chet ellar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalari avj oladi. Mahalliy hunarmandchilik xalq xo'jaligiga zarur mahsulotlar ishlab chiqarib texnik va badiiy jihatdan yuksak darajaga ko'tariladi. O'zbek xonliklari davrida poytaxtlarda zodagonlar, boy-to'ralar va hokimlar ehtiyojlarini qondiradigan hashamatli binolar qurildi, turli zeb-u ziynatlar yaratadigan kasb-hunarlar

rivojlandi, shahar va qishloq aholisiga zarur mahsulotlar yetkazib beradigan har xil hunarmandchilik sohalari paydo bo'ladi".

Hunarmandchilik asosan yirik shaharlar bilan bir qatorda yirik qishloqlarda ham keng tarqalib bordi. Hunarmandchilikning barcha sohalarida o'z kasb uyushmalari mavjud bo'lib, ular oqsoqollar tomonidan boshqarilgan va barcha ishlab chiqarish jarayoni nazorat qilingan. Chetdan shogird yollash kam uchraydigan holat bo'lib, hunarmandchilik sirlari asosan, otadan o'g'ilga meros sifatida qoldirilgan. Hunarmandchilikdagi yetakchi tarmoq to'qimachilik bo'lgan. Bunga sabab bir tomondan ichki va tashqi bozorda bu turdagi mahsulotlarga talab kuchli bo'lsa, ikkinchi tomondan to'qimachilik uchun zarur bo'lgan xomashyolarning mahalliy ekanligi va yetarli bo'lganligi edi.

O'rta Osiyoda XX boshlarigacha gilam to'qish o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, to'qish moslamalari ko'rinishi jihatdan bir xil tayyorlangan. To'qish dastgohlarining yog'ochlari qalinligi, uzunligiga va kaltaligidan bir-biridan farqlangan. Gilam patini kesadigan qaychilar ham oddiy bo'lib, to'qish moslamalarining tayyorlanishi sifatiga ta'sir o'tkazmagan. Gilamlar bir necha oyda tayyor bo'lgan va yig'ishtirib olingan. Bugungi kunda ham Surxondaryoning tog'li qishloqlarida gilam to'qish uchun adorg'a, kizuv, qilich, suruv va arqon kabi maxsus qurilmalardan foydalanib kelishadi.

Vohaning o'rganilayotgan hudud aholisi orasida ham saqlanib qolingan ma'lum bir qadimiy urf - odatlar bo'lib, ota-ona oilada fottiha qilingan qizi uchun sep gilam to'qishni boshlashsa, bo'lajak kelinning qaynotasi ushbu gilamga atab qo'y (qo'chqor) berilgan. Ushbu urf-odatga ko'ra qo'y tezda so'yilib, qudalar hurmatiga ziyofat qilib berilgan. Ziyofat dasturxoniga shirinliklardan tashqari, albatta qatlama qo'yilishi va ziyofatga qizning amakilari ham chaqirilgan. Bu "Sep gilam ziyofati" deb atalgan. Qo'y bu rizq - nasiba, baraka degani, qatlama esa qatlashib, ko'payib ketish degani, shirinlik esa qudalar o'rtasidagi totuvlik, ahillik ma'nolarini bildirgan. Mazkur an'ana aholining gilamga bo'lgan eng qadimiy etnolokal jihati hisoblanadi.

Gilamlarda tasvirlangan naqsh-bezaklarda aholining turmush tarzi, dunyoqarashi, falsafasi, xo'jalik faoliyati, urf-odat va marosimlari ham aks etgan. Gilamlar shakli, uyg'unligi, handasiy maydon, hoshiya, yo'l, o'simlik va yozuvli naqsh ma'nolari harakat, kuch, cheksizlik, barqaror sokinlik hissini baxsh etish hamda abadiylik tushunchalarini hosil qilgan.

Bunda ayniqsa, ramzlar orqali inson ongida kishilarni yagona etnomadaniy hamjamiyatga birlashtiradigan madaniyatning eng muqaddas qirralari ochiladi, aqlga sig'maydigan, inson anglay olmaydigan ma'nolar ham yuzaga chiqadi. Ramz o'ziga xos belgisi, obykti, predmeti bilan aloqador ma'no sifatida qabul qilingan. Ramzlar lingvomadaniy tushuncha sifatida, ularning turmush qoidalariga aylangan deb tasavvur qilingan.

Voha gilamchiligida zamonaviy ramzlar tushirish ham odatga aylanib bormoqda. Buning sababi qo'shni hududlar bilan o'zaro yaqin munosabatlar va savdo aloqalarining keng rivojlanib borayotganligi ham muhim omillardan ekanligidir. Masalan, gilamlardagi naqshlarning barchasida quyosh ramzlari ko'rsatilgan.

Xalqimiz hayotida gilamchilik namunalari nafaqat kishilarning kundalik ehtiyojlarini qondirishi, uylarini bezashi, estetik talablarini, didini va gilam naqshlari diniy-magik va badiiy dunyoqarashlarni o'zida aks ettirgan.

Kishilik jamiyati tarixi, madaniyati va xo'jaligining ajralmas bir bo'lagi bo'lmish xalq hunarmandchiligi o'zining ming yillik tarixiy ildizlariga ega. Qadimgi sivilizatsiya markazlaridan biri-Surxon vohasi aholisi hunarmandchiligi o'zining kasb-kori, yaratgan mehnat qurollari bilan ajralib turgan. Vohada qadimdan hunarmandchilik rivoji uchun zarur xomashyo manbalari mavjudligi bois tarmoq taraqqiy etib, doimiy tarzda mukammallashib, xalqning turmush tarziga moslashib borgan.

Aholining xo'jalik faoliyatini yuritishda hunarmandchilik namunalari etnografik jihatdan o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, xalqning turmush tarzini, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlab olishga, ilmiy tahlil etishga imkoniyat yaratadi. Chunki, har bir xalq o'zining mehnati bilan yaratgan

moddiy-ma'naviy yutuqlari bilan jamiyatda qay darajada turganligini bildiradi. Qadimgi sivilizatsiya markazlaridan bo'lgan Surxondaryoda istiqomat qilgan aholi kasb-kori, yaratgan mehnat qurollari bilan hunarmandchilik sohasida ajralib turgan.

O'tmishda o'troq o'zbeklar nafaqat qo'shni ko'chmanchi elatlar mahsulotini iste'mol yoki xarid qiluvchilar, balki ular uchun zarur hunarmandchilik mahsulotlarini yetkazib beruvchilar sifatida ham namoyon bo'lgan. Shuning uchun mahalliy ustalar ko'plab teri va jundan, yog'och va metallardan, paxta va ipakdan turli buyumlar, kiyim-kechaklarni ishlab chiqib, bozorlarda sotganlar. O'rta asr hunarmandlarining yana bir xususiyati, ularning muayyan ijtimoiy tashkilotlarga ega bo'lishida edi. Bu o'ziga xos jamoachilik an'alariga tayangan maxsus uyushmalarga birikish edi. Asli mazkur uyushmalar hunarmandchilik texnikasi va ishlab chiqarish xarakteri bilan bog'liq va o'z hamkasblari manfaatini qo'riqlash maqsadida tashkil topgan tashkilotlardir.

O'zbek hunarmandchiligining yana bir xususiyati uning ko'p sohalarining bevosita uy-ro'zg'or xo'jaligi bilan bog'liqligi edi. Ko'p hunarmandlar asosiy kasbidan tashqari ayniqsa qishloq sharoitida dehqonchilik, bog'dorchilik va sabzavotchilik bilan ham shug'ullanib kelganlar. Ularning ko'pchilik qismi o'z mahsulotlarini yaqin bozorga chiqaribgina qolmay, ishlab chiqilgan mahsulotiga qarab natura bilan ham haq olganlar (g'alla yoki mol bilan). Bunday holat qishloq jamoachiligi an'analari bilan bog'liq bo'lib, dastavval hamqishloqlar ehtiyojlariga bo'ysungan. Uy hunarmandchiligida ip yigirish, to'qish, kigiz bosish kabi kasblar bilan shug'ullanilgan. To'qimachilikda gilam va palos birinchi galda turar edi.

Surxon vohasi aholisi hunarmandchilik bilan qadim-qadimdan dehqonchilik va chorvachilikdan ajralmagan holda birgalikda shug'ullanib kelishgan. Hunarmandchilik oila uchun qo'shimcha daromad keltirgan, lekin hunarmandchilikning shunday turlari bo'lganki, bu turlar bilan faqat ba'zi oilalar, mahallalar, qolaversa butun qishloq ahli shug'ullanishgan. Ana shu hunar turiga qarab

ham shu oila, mahalla, qishloq nom olgan, masalan, Shodmon temirchi, Charmgarlar mahallasi (Boysun shahri mahallalaridan biri), Egarchi, Cho'yanchi qishloqlari (Sherobod bekligi hududidagi qishloqlar) bunga misol bo'la oladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Hunarmandchilikning, uning ma'lum turining qaysi hududda rivoj topishi avvalambor aholining o'troq, yarim o'troqligiga, hudud tabiatiga, xom ashyoning mavjudligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lgan. Masalan, kulolchilik faqat Sherobod tuprog'i kulolchilik uchun juda mos kelgan. Sherobod kulollari yasagan tandirlari, xumlari, ko'zalari o'zlarining pishiqligi, bejirimligi bilan mashhur bo'lgan. Bugungi kunda ham Sherobodda o'ziga xos kulolchilik maktabi mavjud.

Ayniqsa, o'zbek xalqiga xos bo'lgan an'anaviy hunarmandchilik sohalari orasida mato to'qish, kashtado'zlik, gilamdo'zlik, temirchilik, zargarlik, o'ymakorlik kabi hunar turlari ma'lum va mashhur bo'lgan.

Tovar ishlab chiqarishning ushbu usuli ko'proq yarim natural shaklda bo'lib, asosan o'z ehtiyojini qondirish, ozroq miqdorda o'zlarida tayyorlanmagan mahsulotlarga ayirboshlash maqsadida xizmat qilgan. Vohada XX asr boshlariga qadar tayyor hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning bunday yarim natural usuli ustun bo'lgan. Surxon vohasining Termiz, Sherobod,

Boysun, Denov kabi shaharlarida hunarmand aholi o'z mahsulotini bozorda sotish uchun ishlab chiqargan va pul-tovar munosabatlari ko'rinishida ayirboshlashgan.

Chorvador qo'ng'irotlarda, ya'ni ayollar asosan gilam, sholcha to'qish, kigiz bosish va boshqa uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlash kabi xonaki hunarmandchilik sohalari bilan shug'ullanishgan. Ayollar qo'y va echki junidan chakmon, po'stin, cholvor kabi kiyim-kechaklar, xalta, xurjun, uy-ro'zg'or buyumlari hamda qora uylar va chorva mollari uchun arqon va bog'ichlarni tayyorlashgan. Masalan, Surxon vohasidagi Boysun, Sherobod tumanlarining tog' va tog'oldi qishloqlarida yashovchi qo'ng'irotlarda XX asrning 60-80-yillarida uy sharoitida jundan mato tayyorlash keng tarqalgan. Yarim o'troq qo'ng'irotlarning xo'jalik mashg'ulotida chorvachilik yetakchilik qilganligi sababli, gilam to'qish va kigiz bosish uchun asosan qo'y junini ishlatishgan.

Gilam to'qish kasbini uy sharoitida oilaning keksa yoshli ayoli o'rgatgan va qizlar bolalik vaqtidan boshlab urchuq yigirish, so'ngra vaqti soati yetgach o'rmak to'qish hunarini o'zlashtirishi shart bo'lgan. Uy-ro'zg'orda gilam to'qish an'anasi sovet davrida eskilik qoldig'i sifatida tarzida qoralangan bo'lsada, ammo mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng milliy qadriyatlarimiz qaytadan tiklandi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Jabborov I. O'zbeklar turmush tarzi va madaniyati: O'quv qo'llanma.-T.: "O'qituvchi", 2003.-B.
2. Tursunov S.N. va boshq. O'zbekiston tarixi va madaniyati - Surxondaryo etnografiyasi.-A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2006.
3. N.Oblomurodov, A.Hazratqulov, F.Tolipov, N.Tursunov. O'zbekiston tarixi. -T.: "Fan va texnologiya", 2011.
4. Qobulov E. Surxon vohasi xo'jaligi. - T: Akademnashr, 2012.
5. Jabborov I. O'zbek xalqi etnografiyasi.-T., 1994. — B.
6. Tursunov N.N. Janubiy Surxon vohasi aholisining etnik xususiyatlari.
7. Annayev T., Shaydullayev Sh. Surxondaryo tarixidan lavhalar.-T., 1997.
8. Qarshiyev. I.M. "Surxon-Sherobod vohasi qo'ng'irotlarining hududiy joylashuvi va etnomadaniy xususiyatlari" falsafa fanlari doktori PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T. 2023.
9. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati Oltinsoy, Boysun, Uzun tumanlari. 2024-yil.